



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION
TADQIQOTLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI:
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**



**15-16-MAY
2026-YIL**



**Google
Scholar**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 15-16-may)*

JIZZAX-2026

TADBIRKORLIK ASOSIDA O‘ZINI O‘ZI BAND QILISH: XITOYNING MUVAFFAQIYATLI TAJRIBASI

Nizametdinov Ali Akramovich


Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining mustaqil izlanuvchisi

Elektron pochta: alwaysberich@gmail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada xorijiy mamlakatlarda aholining tadbirkorlik faoliyati orqali o‘zini o‘zi band qilish tizimining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda o‘zini o‘zi band qilishning mehnat bozorini tartibga solish, ishsizlik darajasini kamaytirish, norasmiy bandlikni qisqartirish hamda aholi daromadlarini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda qo‘llanilayotgan samarali amaliyotlar o‘rganilib, tadbirkorlikni rag‘batlantirish orqali iqtisodiy faollikni kuchaytirish mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslangan. Tahlil natijalari aholining o‘zini o‘zi band qilish sohasini takomillashtirish va mazkur yo‘nalishdagi xorijiy tajribalardan samarali foydalanish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Maqolada Xitoy tajribasi misolida o‘zini o‘zi band qilishni qo‘llab-quvvatlashning bosqichma-bosqich institutsional mexanizmi, uning infratuzilmaviy, moliyaviy va raqamli omillari tahlil etilgan. Shuningdek, o‘zini o‘zi band qilish faoliyatining tadbirkorlikka transformatsiya jarayonlari, gig-iqtisodiyot sharoitidagi rivojlanish yo‘nalishlari hamda xalqaro tajribalar asosida umumiy qonuniyatlar aniqlangan. Tadqiqot natijasida o‘zini o‘zi band qilishni samarali rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan asosiy shartlar — maqsadli guruhlarini aniqlash, kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish, moliyaviy resurslarga kirishni kengaytirish va bozor infratuzilmasini rivojlantirish kabi omillar asoslab berilgan. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida o‘zini o‘zi band qilishni mahalla darajasidan boshlab tadbirkorlik subyektlari darajasiga qadar rivojlantirishning ko‘p bosqichli modelini joriy etish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zini o‘zi band qilish, tadbirkorlik, bandlik, mehnat bozori, self-employment, Xitoy tajribasi, transformatsiya, kambag‘allikni qisqartirish, mahalla modeli, iqtisodiy rivojlanish

Jahon mehnat bozoridagi raqobat kuchayishi, an’anaviy ish o‘rinlarining qisqarishi va raqamlashtirilgan iqtisodiyotning taraqqiy etishi sharoitida aholini tadbirkorlik asosida o‘zini o‘zi band qilish, ya’ni self-employment tizimini rivojlantirish masalasi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning strategik ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Bu tizim mehnat bozorining norasmiy segmentini rasmiy iqtisodiy faollikka jalb qilish, ijtimoiy himoya tizimlariga bo‘lgan bosimni kamaytirish va kichik tadbirkorlik subyektlari bazasini kengaytirish imkonini beradi. Ayniqsa iqtisodiy o‘sish sur‘atlari past bo‘lgan yoki makroregionlarda ishsizlik yuqori bo‘lgan holatlarda o‘zini o‘zi band qilish aholining real daromad manbai va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim mexanizm sifatida qaraladi.



1-rasm. Xorijiy davlatlarda mehnatga layoqatli aholi umumiy sonida o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar soni

Rasm ma’lumotlariga ko‘ra mehnatga layoqatli aholining umumiy sonida o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning ulushi eng yuqorisi Gruziya davlatida, ya’ni 51,7 foizni, AQShda esa 6,4 foizni tashkil etadi. Demak, xorijiy davlatlarida mehnatga layoqatli aholisi umumiy sonida o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar soni bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zini o‘zi band qilish mexanizmining samaradorligi uning institutsionallashtirish darajasi, ya’ni davlat siyosatlaridagi uyg‘un tizimi (ta’lim, infratuzilma, moliya va bozor infratuzilmalari o‘rtasidagi bog‘liqlik) orqali ta’minlanadi. O‘zini o‘zi band qilgan shaxsni tadbirkorlik subyektlariga aylantirish uchun, avvalo, kasbiy va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish, moliyaviy resurslarga oson kirish, infratuzilmaviy muhit yaratish (inkubator, kovorking, raqamli platformalar) va mahsulotlarni bozorga chiqarishni osonlashtirish (marketing kanallari) talab etiladi. Shu kabi ko‘p bosqichli mexanizm o‘zini o‘zi band qilishni “ijtimoiy siyosat”dan “iqtisodiy drayver” darajasiga ko‘tarish imkonini beradi.

O‘zini o‘zi band qilishning eng muhim xususiyati – uning dinamik va tranzitiv tabiati bo‘lib, bu faoliyat odatda norasmiy sektorda boshlanib, muayyan institutsional va moliyaviy yordamlar ta’sirida rasmiy biznes subyektlariga aylanib boradi. Eng samarali tizimlar aynan shu transformatsiyaning yuqori ulushini ta’minlaydigan modellar hisoblanadi. Mazkur izlanish shu kabi xalqaro tizimlarni tahlil qilish asosida o‘zini o‘zi band qilishni rivojlantirishda muhim bo‘lgan tuzilmaviy elementlar va yondashuvlarni aniqlashga qaratilgan bo‘lib, olingan xulosalar kelgusida milliy miqyosda samarali o‘zini o‘zi band qilish siyosatini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin.

Xitoy Xalq Respublikasi. Xitoy mehnat bozorida o‘zini o‘zi band qilish faoliyatini aholi daromadlarini oshirish va iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini ta’minlashda strategik element sifatida ko‘radi. Davlat tomonidan ishlab chiqilgan kompleks tizim fuqaroni ishsizlik holatidan tadbirkorlik faoliyatigacha bosqichma-bosqich yetaklab boradi.

Shuningdek, Xitoyda o‘zini o‘zi band qilish tizimi mehnat bozoridagi nomutanosibliklarni oldini olish, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimidan tadbirkorlik

faoliyatiga o'tkazish hamda raqamlashtirilgan iqtisodiyot sharoitida inson kapitali salohiyatidan maksimal foydalanish maqsadida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirilgan. Bu tizim 2015 yilda qabul qilingan "Ommaviy tadbirkorlik va innovatsiyalar (Mass Entrepreneurship & Innovation)" nomli strategik platformasi asosida shakllanib, har bir fuqaroning biznes tashabbusini moliyaviy, infratuzilmaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash orqali o'zini o'zi band qilgan subyektdan rasmiy mikro-tadbirkorga aylantirishni maqsad qiladi.

Mexanizmida mahalla darajasida ishsiz aholini aniqlash va yo'naltirish, qisqa muddatli kurslar orqali tadbirkorlik, raqamli va xizmat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish, imtiyozli mikrokreditlar va grantlar (5–8 ming yuan, 5–7 %) berish kabi bosqichlar qatorida texnoparklar va onlayn (Taobao, Meituan) marketplace'lar tizimiga integratsiya qilish ham ko'zda tutiladi. O'zini o'zi band qilishdan tadbirkorlikka transformatsiya jarayoni, shu tariqa, omillarning ekotizimli uyg'unligi (ijtimoiy, infratuzilmaviy, iqtisodiy va bozor omillari) orqali ta'minlanadi. Xitoy tajribasi o'zini o'zi band qilishni kambag'allikka qarshi kurash vositasidan strategik iqtisodiy drayverga aylantirish mumkinligini ko'rsatadi.

1-jadval

XXRda o'zini o'zi band qilish bo'yicha ko'rsatkichlar dinamikasi

Ko'rsatkichlar	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.
O'zini o'zi band qilish ulushi (% umumiy ish bilan bandlar ichida)	-	29	30	45.31
Daromadlarda o'sish (aholi jon boshiga / iqtisodiy o'sish, %)	2.2	8.1	3.0	5.3
O'zini o'zi band qilishdan rasmiy tadbirkorlikka o'tganlar (%)	-	-	-	5–8

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2020–2023 yillar oralig'ida Xitoyda aholining tadbirkorlik asosida o'zini o'zi band qilish ko'rsatkichi keskin oshib borayotgani kuzatiladi. Ayniqsa, 2020–2021 yillarda taxminan 29–30 % atrofida bo'lgan o'zini o'zi band qilish ulushi 2023 yilga kelib 45,3 % ga yetib, mamlakat mehnat bozorining yarmiga yaqini aynan o'zini o'zi band qilish shaklida mehnat faoliyatini amalga oshirayotganini anglatadi. Bu o'sish, birinchi navbatda, "COVID-19" davrida rasmiy ish o'rinlarining qisqarishi hamda raqamlashtirilgan platformalar (Taobao, JD, Meituan va boshq.) orqali frilansing va uy sharoitida o'zini o'zi band qilish faoliyatining kengayishi bilan bog'liq.

Iqtisodiy o'sish sur'atlari va aholi daromadlaridagi dinamika ham ushbu jarayonni qo'llab-quvvatlaydi. 2020 yilda COVID ta'siri bilan aholi jon boshiga daromad o'zgarishi 2,2 % bo'lgan bo'lsa, 2021–2023 yillarda ichki iste'mol va raqamli xizmatlar hisobiga 3 % – 5,3 % atrofida o'sish qayd etilgan. Demak, o'zini o'zi band qilish orqali mehnat bozoriga jalb qilingan aholi iqtisodiy faollik va daromad manbaini ko'paytirishda muhim rol o'ynagan.

Shu bilan birga, o'zini o'zi band qilishdan rasmiy biznes subyektlariga (ya'ni tadbirkorlikka) transformatsiyaning nisbatan past ekanligi (2023 yilda taxminan 5–8 % atrofida) ushbu modelning zaif nuqtasi bo'lib turibdi. Bu ko'rsatkich o'zini o'zi band qilish faoliyati asosan norasmiy sektorda saqlanayotganini va faqat kichik qismigina davlat ro'yxatiga olinib, soliq tizimiga kirib borayotganini ko'rsatadi.

Xitoyning aholini tadbirkorlik asosida o'zini o'zi band qilishga yo'naltirilgan siyosatlarini mehnat bozorining ichki talablariga javob beradigan institutsional va bosqichma-bosqich ekotizim shaklida tashkil etilganligi bilan e'tiborga molik. Birinchi bosqichda ijtimoiy (ayollar va yoshlar ishsizligi), iqtisodiy (kambag'allik darajasi), hamda bozor omillari (ish o'rinlariga bo'lgan talab) ta'sirida o'zini o'zi band qilish uchun potensial demografik guruh aniqlanadi. Bu bosqichda Inson resurslari va ijtimoiy himoya agentligi (Human Resources and Social Security) va mahalliy hokimiyatlar tomonidan yoshlar, migrantlar, ishsizlar va kam daromadli aholi ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi.

Ikkinchi bosqichda infratuzilmaviy resurslar (trening markazlari, mahalliy o'quv markazlari)ga tayangan holda qisqa muddatli ta'lim orqali aholining tadbirkorlik va raqamli ko'nikmalari shakllantiriladi. Inson resurslari va ijtimoiy himoya agentligi o'quv markazlari va Savdo-sanoat palatalari bu jarayonning asosiy amalga oshiruvchilari hisoblanadi. Bunda raqamli iqtisodga o'tish strategik vazifa sifatida belgilanadi, chunki ichki bozorning xizmat va elektron tijorat (e-commerce) talablari ortib bormoqda.

Uchinchi bosqichda iqtisodiy omillar – moliyaviy resurslarning mavjudligi, foiz stavkalari va bozorga chiqish xarajatlarining ta'siri namoyon bo'ladi. "Postal Savings Bank", "VBSP" va qishloq kredit uyushmalari orqali 5–8 ming yuan miqdorida mikrokredit va grantlar taqdim etiladi. Bu bosqich o'zini o'zi band qilish faoliyatini boshlash uchun moliyaviy "startap kapital"ni shakllantiradi va olingan imtiyozli qarzlar mikro ish o'rinlarini yaratish bilan birga, tadbirkorlikka bosqichma-bosqich o'tish imkonini beradi.

To'rtinchi – faoliyat bosqichida o'zini o'zi band qilish faoliyati qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish sohalari va raqamli savdo (Taobao, JD, Meituan) orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda bozor omillari – talab, logistika imkoniyatlari va ijtimoiy omillar – ayollarni uydan turib ishga jalb qilish imkoniyati yetakchi rol o'ynaydi. Shu tufayli o'zini o'zi band qilgan guruhlar uchun raqamlashtirilgan savdo platformalari asosiy manzilga aylanadi.

Beshinchi va oltinchi bosqichlar – inkubatsiya va rasmiy tadbirkorlikka o'tish bosqichlaridan iborat bo'lib, ularda infratuzilmaviy omillar (koverking-markazlar, texnoparklar) hamda huquqiy va bozor omillari (litsenziyalash, soliq, eksport kanallari) muhim rol o'ynaydi.

Xitoy tajribasining ilmiy ahamiyati shundaki, u o'zini o'zi band qilishni ijtimoiy siyosatdan iqtisodiy siyosatga bosqichma-bosqich aylantirishni ta'minlaydigan modelni shakllantiradi. Bu modelda har bir bosqich aniq institutlar, omillar va mexanizmlar bilan operativ tarzda ta'minlangan bo'ladi.

Ushbu tajriba O'zbekiston uchun ham ahamiyatli bo'lib, mahallalarda o'zini o'zi band qilishni tadbirkorlikka o'tish yo'li sifatida institutsionallashtirish imkonini yaratadi. Bunda tuman darajasida o'quv-inkubatsiya markazlari tashkil etish, maxsus soliq

rejimlarini joriy qilish va raqamlashtirilgan xizmat bozorlarini kengaytirish ustuvor vazifa sanaladi.

Xalqaro amaliyot tahlillari aholini tadbirkorlik asosida o'zini o'zi band qilish tizimini rivojlantirishda institutsional yondashuvga asoslangan bo'lib, ushbu mamlakatlar tajribasiga xos umumiy qonuniyat shundan iboratki, o'zini o'zi band qilish ishsizlikni qisqartirish vositasi bo'libgina qolmay, kichik tadbirkorlikka olib boruvchi transformatsiyaviy trek sifatida ravnaq topgan. Masalan, Germaniyada raqamli iqtisodiyotning yetarlicha rivojlanganligi o'zini o'zi band qilish faoliyatini tezkor bozorlashtirishga imkon beradi. Shu sababli o'zini o'zi band qilishni samarali tadbirkorlikka transformatsiya qilish uchun to'rt asosiy shart dolzarb ahamiyat kasb etadi:

1. Aholining maqsadli guruhlarini to'g'ri tanlash va yo'naltirish;
2. Ko'nikma va bilimlarni shakllantiruvchi infratuzilmaviy ta'lim tizimini joriy etish;
3. Moliyaviy resurslarga oson kirish mexanizmlari va institutsional qo'llab-quvvatlash;
4. Bozor infratuzilmasi va huquqiy muhit orqali rasmiy tadbirkorlikka o'tishni yengillashtirish.

Mazkur holatlardan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda o'zini o'zi band qilishni rivojlantirishda "mahalla darajasidan boshlanuvchi – tadbirkorlik subyektlari darajasida tugashi mumkin bo'lgan" ko'p darajali modelni tatbiq qilish, shubhasiz, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va fuqarolarning o'z daromad manbaiga ega bo'lish imkonini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. David Lauder. The System of Support for SMEs in the UK and Germany. European Business Review. Volume 94 Number 1 1994.
2. Ivy (1997). "Entrepreneurship Strategies and Problems in Post Communist Europe: A Survey of SMEs in Slovakia." Journal of Small Business Management 35(3): 93-98.
3. Inutu Lukonga. Harnessing Digital Technologies to Promote SMEs and Inclusive Growth in the MENAP Region. IMF Working Paper. © 2020 International Monetary Fund.
4. Welter F., Baker T., Audretsch D. Entrepreneurship Policy and the Informal Economy. – Berlin: Springer, 2017. – 235 p.
5. Fritsch. M. How does new business formation affect regional development? Introduction to the special issue. Small Business Economics 27 (2008): 245-260.
6. Хусаинов, М.К., Исоков, А.А. Исследование зарубежного опыта финансирования и поддержки малого и среднего предпринимательства/М.К. Хусаинов, А.А. Исоков // Бизнес в законе. - 2012. - № 2. - С. 271-273.
7. Хусаинов, М.К., Исоков, А.А. Исследование зарубежного опыта финансирования и поддержки малого и среднего предпринимательства/М.К. Хусаинов, А.А. Исоков // Бизнес в законе. - 2012. - № 2. - С. 271-273.
8. Чубарева Л.И. Эффективность поддержки малого бизнеса и критерии ее оценки // Экономика промышленности. – 2008. – Т. 41. – № 2. – С. 102–111.